# NAVOIY VILOYATI KONIMEX TUMANI HOKIMINING
# Q A R O R I

2023 - yil 26 - dekabr 174-5-70-Q/23 Konimex tuman hokimiligi

**Tumanda 2024 yilda transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish toʻgʻrisida**

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yoʻl harakati xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunining 17-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga (keyingi oʻrinlarda - Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024 yilda majburiy texnik koʻrigini tashkil qilish maqsadida

**Q A R O R  Q I L A M A N :**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalari majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish boʻyicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik koʻrikdan oʻtkazilsin:

tijorat asosida yoʻlovchilar tashish faoliyati bilan shugʻullanuvchi engil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va oʻrindiqlar soni 8 ta va undan ortiq boʻlgan (haydovchining oʻrnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, ogʻir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari - bir

yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)- bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan kat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi ximati (keyingi o‘rinlarda-DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno ).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta - 1 mart - 30 iyunda;

ikkinchi marta - 1 sentyabr - 31 oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar - 31 dekabrgacha o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jixozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarning mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki

standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligi tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari - yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli Ml toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jixatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Tuman hokimining 2023 yil 23 dekabrdagi “Tumanda 2023 yilda transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 219-5-70-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo`jalik va ekologiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

**Konimex tumani hokimi** **Ro`ziyev.R**

Konimex tuman hokimining
2023-yil 26-dekabrdagi
174-5-70-Q/23-son qaroriga
1-ilova

## Tumanda transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish boʻyicha tuman komissiyasi

**T A R K I B I**

**Komissiya raisi :**

| | | |
|---|---|---|
| Xayrullayev Farxod Faxriddinovich | | Konimex tuman ichki ishlar boʻlimi boshligʻi oʻrinbosari, mayor |

**Komissiya a'zolari:**

| | | |
|---|---|---|
| Raximov Bektosh Uktamovich | - | Navoiy viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri |
| Buriev Nurxat Muxtarovich | - | tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi |

**Komissiya kotibi:**

| | | |
|---|---|---|
| Shodmonov Gʻaybullo Xayrievich | - | Tuman ichki ishlar boʻlimi YHXB katta inspektori |

Konimex tuman hokimining
2023-yil 26-dekabrdagi
174-5-70-Q/23-son qaroriga
2-ilova

## Majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish jadvali

| № | Transport vositasining tegishliligi | Tex.koʻrikdan oʻtkazish vaqti | Tex.koʻrikdan oʻtkazish joyi | Transport vositalari soni |
|---|---|---|---|---|
| 1 | “Konimex-Ekspress” MChJ | 10-00dan18-00gacha | Joyida | 11 |
| 2 | Saribel –sur Qorakul MChJ | 10-00dan18-00gacha | Joyida | 5 |
| 3 | Navoiy viloyati “Suvoqova”DUK Konimex tuman filiali | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 4 | Tuman TYFUK (Yoʻl qur.boshqarmasi) | 10-00dan18-00gacha | Joyida | 19 |
| 5 | Tuman hokimligi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 11 |
| 6 | Konimex Sarjal Qosay MChJ | 10-00dan18-00gacha | Joyida | 7 |
| 7 | Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi | 10-00dan16-00gacha | TYFUK | 10 |
| 8 | Tuman Oʻrmon xo'jaligi | 10-00dan12-00gacha | Joyida | 4 |
| 9 | “Konimex-delta” XK | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 4 |
| 10 | “Manzur-Teks” MChJ | 10-00dan18-00gacha | Joyida | 6 |
| 11 | “Mahalla” hayriya jamoat fondi | 10-00dan10-00gacha | TYFUK | 1 |
| 12 | Avaz f/x | 10-00dan10-00gacha | TYFUK | 1 |
| 13 | “Konfayz-Lochin” MChJ | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 6 |
| 14 | Tuman Veterinariya laboratoriyasi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 15 | “Abdiraim avlod” XF | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 16 | Toyir jamol f/x | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 17 | Qishloq va suv xo'jaligi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 19 | Shoxsanam Munavvar | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 20 | Qorakul Uchtepa sur MChJ | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 13 |
| 21 | Toza hudud | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 5 |
| 22 | Yangigʻazgʻon nurli diyor MChJ | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 9 |
| 23 | Gujumli vater | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 24 | Tuman markaziy shifoxona | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 11 |
| 25 | Irrigatsiya | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 26 | Aknur MChJ | 10-00dan11-00gacha | Uzida | 1 |
| 27 | Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish markazi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 28 | Uchqun Norqul f/x | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 29 | Yangigʻazgʻon x/f | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 30 | Suxrob gold o/k | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 31 | Navoiy uran DK | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 392 |
| 32 | Qizilqum fasforit DUK | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 50 |
| 34 | Eltay-kumush-sur maskani | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 7 |
| 35 | Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo'limi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 2 |
| 36 | Navoiy qorako'l uyushmasi | 10-00dan11-00gacha | TYFUK | 1 |
| 37 | Vatanparvar | 10-00dan10-00gacha | TYFUK | 8 |